



№ 2/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

АГПИ
Научный вестник



ANDIJON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 2 2026 **aprel**

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 8-maydagi №354-
sonli qarori bilan **Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy
attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

Xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi yirik
ilmiy ma'lumotlar **CrossRef** bazasida
indeksialanadi.

★ Ilmiy maqolalar O'zbek, Rus, Ingliz tillarida
<https://eduservis.uz> sayti orqali qabul qilinadi.

Murojaat uchun:

Telegram: ADPIilmiyxabarnoma_bot

Electron manzil: eduservis@gmail.com

2/2

BOSH MUHARRIR:

B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul muharrir:

B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi

I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor

Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor

A.E. Zaynobiddinov- biologiya fanlari doktori, professor

B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor

M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor

Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.A. Tojiboyeva - filologiya fanlari doktori, professor

Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc), professor

T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A. Zapparov- texnika fanlari nomzodi, professor

U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor

M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor

L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor

Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent

D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D'.M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

K.S. Karimov - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

M.I. O'rinboyev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Muharrirlar:

O. Karimov,

U. Malikova,

B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Artikova M.B., Turaboyeva M.R. Ta'lim xoldingi dasturiy ta'minoti: bilimni targ'ib qilish va ta'lim xizmatlari taklifi sifatida	4
Abdullayeva N.J., Madmarova G.Q. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	9
Hasanov Sh.A. Analitik tafakkur – talabalarda fikrlash dinamikasi va intellektual rivojlanishning asosiy kognitiv omili sifatida	15
Shabdullayeva L.O. Malakaviy amaliyot jarayonida talabalarda raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni qo'llay olish mexanizmlari	20
Agzamova N.O. Xorijiy tillarni o'qitishda pedagogning qarashlari va o'qitish metodlariga bu qarashlarning ta'siri	30
Matmusayev T.M. Avlodlar nazariyasi va yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar uzviyligi	35
Axmedova N.D., Urinbayeva B.Z. Bo'lajak tarbiyachilarning bolalarda hissiy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	42
Alimov J.A., Shermuhammedov M. Zamonaviy sharoitda stol tennis orqali talabalarning jismoniy faolligini oshirish	47
Axunov U.R. Kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash	51
Shabdullayeva L.O. Talabalarda mustaqil ta'limni shakllanganlik mezonlari ularning baholash usullari va vositalari	55
Karimova M.M. Ta'lim-tarbiyada qo'shiqning o'rni	62
Azimova Z.E., Otabayeva Z.G'. Klasterli yondashuv asosida talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari	67
Hasanov Sh.A. Badiiy asar tahlili kompetensiyasi - filolog talabalarda kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishning didaktik drayveri sifatida	71
Ismonov X.B., Azimjonova U.Z. Muhandislik grafikasi jarayonlarida aksometrik proyeksiyalar va ularning ahamiyati	78
Maxmudov A.O. Chizmachilik mashg'ulotlarida interfaol va grafik metodlar orqali o'quvchilarning ijodiy va fozoviy tafakkurini rivojlantirish	84
Abduraxmonova D.Sh. Bo'lajak "tarbiya" fani o'qituvchilarini individual yondashuv asosida o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish faoliyatiga tayyorlashning pedagogik, psixologik va amaliy asoslari	89
Bekmuratov N.A., Odiljonov U.U. Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari	93
Madaminova G.G. Umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy muammolari	100
Mashrabova B.N. Irony and hyperbole in the dialogue of abdujjon: a stylistic analysis of cinematic language	106
Nishonov N.A. O'yin faoliyatining psixosotsial va pedagogik aspektlari	111
Ubaydullayev S.Q., Tursunov F.E., Qo'ychiyeva M.L. Texnologiya fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalarini ahamiyati	115
Uraimov S.R., Xakimjonov M.X. Workout metodikasining xorijiy mamlakatlardagi qo'llanilishi va uning o'zbekiston sharoitida rivojlantirish	120
Yoqubjonov N.G'. Futbol orqali talabalarda jamoaviylik va yetakchilik sifatlarini shakllantirish	126
Jo'rayeva D.I. Musiqa madaniyati darslarida o'zbek xalq kuy-qo'shiqlaridan foydalanish metodikasi	130

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

Rasulov B.M., Abduraxmanov A.A. Yangi O'zbekistonda sud huquq tizimidagi islohatlar	135
Raximova Z.X. Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ijtimoiy ehtiyoj sifatida	142
Uzaqova N.M. Oliy ta'limda inklyuziv ta'limning rivojlanishi: yutuq va kamchiliklari	149
Rahmatullayeva G.M., Dripova A.M. Talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish tajribasi va samaradorligini aniqlash	153
Mutallibjonov U.I. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda huquqiy tarbiyaning o'rni	157

ANIQ VA TABIIY FANLAR

Asqarov I.R., Isayev Yu.T., Rustamov S.A., Mirzaabdullayev B.A. Xalq tabobati usullaridan foydalanilgan holda talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	162
Абдурахимов А., Нишанов Х., Эсонбоева Ш. Основные характеристики средней множественности заряженных частиц в физике высоких энергий	169
Umarov A.V. Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida mediakompetentlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslari	173
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Цитогенетическое изучение мутагенной активности в соматических клетках экспериментальных животных после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	179
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Исследование количества и состава иммунокомпетентных клеток после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	183
Mamadaliyev B.K. Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy dasturlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish	187
Jamoldinova D.A. Mantiqiy masalalar ta'limida milliy va xalqaro yondashuvlar uyg'unligi	192
Abfazova K.S. Uzlüksiz ta'lim tizimida matematika fanini modulli o'qitish metodikasi	196

UO'K: 316.612-053.81:316.752(575.1)

AVLODLAR NAZARIYASI VA YOSHLAR IJTIMOYLAISHUVIDA QADRIYATLAR UZVIYLIGI

Matmusayev Toxirjon Mutalibovich

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti

Annotatsiya.

Maqolada avlodlar muammosi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Avlod faqat biologik nasl sifatida emas, balki tarixiy tajriba, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimini qabul qiluvchi va qayta yaratishchi tarixiy-ijtimoiy sub'ekt sifatida talqin qilinadi. Karl Mannheim, Xose Ortega-i-Gasset va Arnold Toynbi nazariyalari orqali avlodlarning jamiyat rivojidadagi roli, qadriyatlar vorisiyligi va aksiologik transformatsiya jarayonlari o'rganiladi. Yoshlar avlodi tarixiy tajribani tanlab qabul qilib, qadriyatlarni yangi kontekstda qayta talqin etish orqali jamiyatning ma'naviy qayta ishlab chiqarilishini ta'minlaydi. Shuningdek, qadriyatlar uzatilishi va avlodlararo muloqotning mexanizmlari, hamda zamonaviy texnologik va madaniy sharoitda yuzaga keladigan aksiologik diskontinuitetlar tahlil qilinadi. Maqola yoshlar ijtimoiylashuvini avlodlar nazariyasi doirasida aksiologik, tarixiy va madaniy uzluksizlik nuqtai nazaridan tushunishga qaratilgan.

Kalit so'zlar:

avlodlar muammosi, yoshlar ijtimoiylashuvi, qadriyatlar vorisiyligi, avlodlararo muloqot, aksiologik transformatsiya, tarixiy tajriba, jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy ong, ijtimoiy-falsafiy tahlil, qadriyatlar diskontinuiteti.

Аннотация.

В статье проблема поколений анализируется с точки зрения социальной философии. Поколение рассматривается не только как биологическая категория, но и как историко-социальный субъект, воспринимающий и воспроизводящий исторический опыт, социальное сознание и систему ценностей. На основе теорий Карла Маннгейма, Хосе Ортеги-и-Гассета и Арнольда Тойнби исследуются роль поколений в развитии общества, преемственность ценностей и процессы аксиологической трансформации. Молодое поколение, выборочно усваивая исторический опыт и переосмысливая ценности в новом контексте, обеспечивает духовное воспроизводство общества. Кроме того, анализируются механизмы передачи ценностей и межпоколенческого взаимодействия, а также аксиологические дисконтинuitеты, возникающие в современных технологических и культурных условиях. Статья направлена на понимание социальной социализации молодежи через призму теории поколений с точки зрения аксиологической, исторической и культурной преемственности.

Ключевые слова:

проблема поколений, социальная социализация молодежи, ценностная преемственность, межпоколенческое взаимодействие, аксиологическая трансформация, исторический опыт, развитие общества, социальное сознание, социально-философский анализ, дисконтинuitет ценностей.

Abstract.

The article discusses the problem of generations from the perspective of social philosophy. A generation is understood not merely as a biological category but as a historical-social subject that perceives and reproduces historical experience, social consciousness, and a system of values. Based on the theories of Karl Mannheim, José Ortega y Gasset, and Arnold Toynbee, the role of generations in societal development, value continuity, and processes of axiological transformation is examined. The younger generation, selectively assimilating historical experience and reinterpreting values in a new context, ensures the spiritual reproduction of society. Additionally, the mechanisms of value transmission and intergenerational interaction, as well as axiological discontinuities arising in contemporary technological and cultural conditions, are analyzed. The article aims to understand youth socialization through the lens of generation theory, emphasizing the axiological, historical, and cultural continuity of values.

Keywords:

problem of generations, Social socialization of youth, Value continuity, Intergenerational interaction, Axiological transformation, Historical experience, Societal development, Social consciousness, Socio-philosophical analysis, Value discontinuity.

Avlodlar muammosi ijtimoiy falsafada jamiyatning tarixiy davomiyligi, madaniy vorisiyligi va qadriyatlar uzatilishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan fundamental masalalardan

biridir. Jamiyat taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy o'zgarishlar orqali, balki avlodlar almashinuvi jarayonida shakllanadigan ijtimoiy ong, tarixiy tajriba va qadriyatlar tizimi orqali amalga oshadi. Shu sababli, avlodlar muammosini biologik almashuv sifatida emas, balki tarixiy-ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilish ijtimoiy falsafaning muhim metodologik vazifasidir.

Kundalik ongda "avlod" tushunchasi ko'pincha biologik nasl, yosh farqi yoki demografik guruh sifatida talqin qilinadi. Biroq ijtimoiy falsafa doirasida avlod biologik birlik emas, balki muayyan tarixiy sharoitda shakllangan, umumiy ijtimoiy tajriba, dunyoqarash va qadriyatlar tizimiga ega bo'lgan ijtimoiy-tarixiy birlik sifatida tushuniladi.

K.Mannheim avlod tushunchasini aynan tarixiy ong bilan bog'lab, avlodni "bir davrda shakllangan, umumiy muammolar va hodisalarni boshdan kechirgan ijtimoiy sub'ekt" sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, avlodni belgilovchi asosiy omil yosh emas, balki tarixiy tajribaning birligi va ijtimoiy voqelikni bir xil talqin qilish usulidir.

X.Ortega-i-Gasset ham avlodlarni sivilizatsiya dinamikasining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'rib, har bir avlod jamiyatga o'ziga xos hayotiy dastur va qadriyatlar majmuasini olib kirishini ta'kidlaydi. Shu jihatdan, avlodlar jamiyat tarixining faqat davomchilari emas, balki uning ma'naviy mazmunini qayta ishlab chiquvchi sub'yektlaridir.

Mualliflik pozitsiyasiga ko'ra, avlod – bu biologik emas, balki aksiologik kategoriya bo'lib, u muayyan tarixiy davrda shakllangan dunyoqarash, qadriyatlar ierarxiyasi va ijtimoiy ideallar tizimi bilan tavsiflanadi. Avlodlar o'rtasidagi farq, avvalo, yoshda emas, balki ijtimoiy ong va qadriy orientatsiyalarda namoyon bo'ladi.

Avlodlarni ijtimoiy-falsafiy tahlil qilishda ularni tarixiy tajribaning faol sub'ekti sifatida ko'rish muhimdir. Tarix jamiyat uchun tashqi voqealar majmui emas, balki avlodlar ongida ichkilashadigan, ma'nolanadigan va qadriy jihatdan talqin qilinadigan jarayondir. Gegel tarixiy rivojlanishni "ob'ektiv ruh"ning o'zini anglash jarayoni sifatida talqin qilib, har bir davr va avlod tarixiy ruhning muayyan bosqichini ifodalashini asoslagan.

Shu nuqtai nazardan, avlod jamiyatning tarixiy tajribasini nafaqat qabul qiladi, balki uni qayta talqin etadi. Urushlar, ijtimoiy inqiloblar, texnologik o'zgarishlar, madaniy siljishlar avlod ongida muayyan qadriy pozitsiyalarni shakllantiradi. K.Mannheim ta'kidlaganidek, bir tarixiy hodisa turli avlod vakillari tomonidan turlicha idrok etiladi va aynan shu farq avlodlar o'rtasidagi aksiologik tafovutni yuzaga keltiradi.

Yoshlar avlodi bugungi kunda yangi tarixiy tajribaning markazida turib, jamiyatning kelajakdagi qadriy qiyofasini belgilovchi asosiy sub'ektga aylanmoqda. Shu bois, yoshlar ijtimoiylashuvini tahlil qilish avlodning tarixiy missiyasini anglash bilan uzviy bog'liqdir. Jamiyat taraqqiyoti avlodlar almashinuvi orqali amalga oshadigan uzluksiz, biroq ziddiyatli jarayondir. Har bir yangi avlod mavjud ijtimoiy tartibotni tayyor holda qabul qilmaydi, balki uni qayta ko'rib chiqadi, tanlaydi va o'zgartiradi. Gegel dialektikasida yangilik eski shakllarni inkor etish orqali emas, balki ularni o'zida saqlagan holda yengib o'tish orqali vujudga keladi. Avlodlar almashinuvi ham aynan shu dialektik mantiqqa bo'ysunadi.

A.Toynbi sivilizatsiyalar taraqqiyotini “chaqiriq va javob” mexanizmi orqali izohlab, yosh avlod har bir tarixiy chaqiriqqa yangi javob ishlab chiqishini ta’kidlaydi. Bu jarayonda jamiyat yoki yangilanadi, yoki inqirozga yuz tutadi. Demak, avlodlar almashinuvi jamiyat taraqqiyotining biologik emas, balki ma’naviy-tarixiy mexanizmi hisoblanadi. Mualliflik nuqtai nazariga ko’ra, avlodlar almashinuvi jamiyatning aksiologik yangilanish mexanizmi bo’lib, aynan shu jarayonda qadriyatlar tizimi qayta ierarxialanadi. Yoshlar ongida ustuvorlik kasb etgan qadriyatlar kelajak jamiyatning normativ asosiga aylanadi.

Jamiyatning uzluksizligi moddiy ishlab chiqarish bilangina emas, balki qadriyatlar uzatilishi orqali ta’minlanadi. Axloqiy me’yorlar va qadriyatlarni jamiyatning ichki biriktiruvchi kuchi sifatida talqin qilib, ularning avloddan-avlodga uzatilishini ijtimoiy birdamlikning sharti sifatida ko’rsatgan. Qadriyatlar uzatilishi jarayoni jamiyatning ma’naviy qayta ishlab chiqarilishi demakdir. Bu jarayonda an’analar, tarixiy xotira, ta’lim, madaniyat va ijtimoiy institutlar muhim rol o’ynaydi. Qadriyatlar shunchaki saqlanmaydi, balki har bir avlod tomonidan qayta talqin qilinadi va yangi tarixiy mazmun bilan boyitiladi.

Qadriyatlar uzatilishidagi asosiy muammo ularning mexanik ko’chirilishida emas, balki yoshlar ongida ma’nolanish darajasida yotadi. Qadriyatlar yoshlar uchun ichki ehtiyoj va hayotiy mezonga aylangandagina ma’naviy vorisilik ro’yobga chiqadi. Avlodlar nazariyasi yoshlar muammosini individual yoki faqat demografik masala sifatida emas, balki tarixiy-ijtimoiy jarayon sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Yoshlar muammosi, avvalo, yangi avlodning jamiyat qadriyatlariga munosabati, tarixiy tajribani qabul qilishi va uni qayta ishlab chiqishi bilan bog’liq.

Avlodlar yondashuvi yoshlarni jamiyatga moslashayotgan ob’ekt emas, balki ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimini shakllantirayotgan sub’ekt sifatida ko’rishga imkon beradi. Bu metodologiya yoshlar ijtimoiylashuvidagi uzviylik va uzilish, vorisilik va transformatsiya, an’ana va innovatsiya o’rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berish imkonini yaratadi. Mualliflik xulosasi sifatida ta’kidlash joizki, avlodlar nazariyasi yoshlar ijtimoiylashuvini tushunishda markaziy metodologik kalit bo’lib, u qadriyatlar tizimidagi o’zgarishlarni individual psixologiya darajasida emas, balki jamiyatning tarixiy va aksiologik rivojlanishi doirasida tahlil qilish imkonini beradi. Aynan shu yondashuv keyingi bo’limlarda avlodlar nazariyalarini chuqur tahlil qilish va yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar uzviyligi muammosini asoslash uchun nazariy poydevor vazifasini bajaradi.

Avlodlar muammosi ijtimoiy falsafada jamiyat taraqqiyotining ichki mexanizmlarini anglashga xizmat qiluvchi muhim nazariy yo’nalishlardan biri hisoblanadi. Turli davrlarda mutafakkirlar avlodlarni biologik almashuv emas, balki tarixiy tajriba, ijtimoiy ong va qadriyatlar uzatilishining faol sub’ekti sifatida talqin etib kelganlar. Klassik va zamonaviy avlodlar nazariyalarini tahlil qilish yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar uzviyligi muammosini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Avlodlar nazariyasining ijtimoiy-falsafiy asoslarini ishlab chiqqan yetakchi mutafakkirlardan biri Karl Mannheim hisoblanadi. U “Avlodlar muammosi” asarida avlod

tushunchasini biologik yosh guruhidan farqlab, uni muayyan tarixiy davrda shakllangan ijtimoiy ong va tajriba birligi sifatida talqin qiladi. Mannheimga ko'ra, avlodni belgilovchi asosiy omil – bu bir xil tarixiy hodisalarni boshdan kechirganlik va ularni umumiy ma'naviy prizma orqali talqin qilishdir [1].

U “avlodlar joylashuvi” (Generationslagerung) tushunchasini kiritib, bir davrda tug'ilgan, ammo turli ijtimoiy qatlamlarga mansub kishilar ham umumiy tarixiy tajriba asosida muayyan aksiologik yaqinlik hosil qilishini ko'rsatadi. Mannheim uchun avlod – bu jamiyatda tarixiy ongning shakllanish shaklidir. Aynan yoshlar avlodi tarixiy jarayonlarni eng faol ichkilashtiruvchi va ularni yangi qadriyatlar tizimi orqali qayta ishlab chiquvchi sub'ektdir.

Mualliflik pozitsiyasiga ko'ra, Mannheim yondashuvi yoshlar ijtimoiylashuvini “moslashuv” emas, balki “tarixiy ongni ishlab chiqish” jarayoni sifatida talqin qilish imkonini beradi. Bu esa yoshlarni qadriyatlar uzatilishining passiv ob'ekti emas, balki aksiologik transformasiyaning faol sub'ekti sifatida ko'rishga asos yaratadi.

Ispan faylasufi Xose Ortega-i-Gasset avlodlar nazariyasini sivilizasiya dinamikasi bilan bog'lab, jamiyat taraqqiyotini “avlodlar ritmi” orqali tushuntiradi. Uning fikricha, har bir tarixiy davrda taxminan 15–20 yillik oralig'ida yangi avlod sahnaga chiqadi va jamiyat hayotiga yangi hayotiy pozitsiya, yangi did va yangi qadriyatlar olib kiradi [2].

Ortega jamiyat tarixini biologik emas, balki ma'naviy sikllar sifatida talqin qilib, avlodlar almashinuvi jamiyatning ichki yangilanish mexanizmi ekanini ta'kidlaydi. Har bir avlod o'zidan oldingi avlod qadriyatlarini to'liq qabul qilmaydi, balki ularni tanlab, qayta talqin qiladi. Shu sababli sivilizasiya rivoji avlodlararo dialektika asosida amalga oshadi.

Ortega yondashuvi yoshlar avlodini jamiyatdagi innovasion kuch sifatida ko'rsatadi. Bu nazariya yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar uzviyligi faqat saqlash emas, balki yangilash mexanizmi ham ekanini asoslash imkonini beradi.

Arnold Toynbi sivilizasiyalar rivojini “chaqiriq va javob” konsepsiyasi asosida tushuntirib, har bir tarixiy bosqichda jamiyat oldida turgan muammolarga yosh avlod qanday javob berishi sivilizasiyaning taqdirini belgilashini ko'rsatadi [3].

Toynbi uchun avlodlar jamiyatning ma'naviy vorisiyligini ta'minlovchi asosiy kuchdir. Agar yangi avlod tarixiy chaqiriqlarga munosib aksiologik javob ishlab chiqa olsa, sivilizasiya rivojlanadi; aks holda, u inqirozga yuz tutadi. Shu jihatdan, yoshlar qadriyatlar tizimi jamiyatning strategik resursiga aylanadi.

Mualliflik nuqtai nazariga ko'ra, Toynbi yondashuvi yoshlar ijtimoiylashuvini sivilizasion jarayon bilan bog'lash imkonini beradi. Bu esa qadriyatlar uzviyligini faqat madaniy emas, balki tarixiy barqarorlik sharti sifatida talqin qilishga asos yaratadi.

Zamonaviy ijtimoiy falsafa va sosiologiyada Ronald Inglehart avlodlar almashinuvi orqali yuz beradigan qadriyatlar siljishini empirik va nazariy asosda tadqiq qilgan etakchi olimdir. U industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o'tishda “moddiy qadriyatlardan postmoddiy qadriyatlarga” siljish sodir bo'layotganini asoslaydi [4].

Inglehartga ko'ra, yosh avlod bolalik davrida boshdan kechirgan ijtimoiy sharoitlar uning butun hayoti davomida saqlanib qoladigan qadriyatlar tizimini belgilaydi. Shu sababli qadriyatlar o'zgarishi asosan avlodlar almashinuvi orqali sodir bo'ladi.

Mening ilmiy pozisiyamga ko'ra, Inglehart nazariyasi yoshlar ijtimoiylashuvida tarixiy muhitning hal qiluvchi rolini ko'rsatadi, biroq uni aksiologik tahlil bilan boyitish zarur. Chunki qadriyatlar siljishi faqat ehtiyojlar o'zgarishi emas, balki ma'no, identifikasiya va ideallar transformasiyasi bilan ham belgilanadi.

Jamiyatning tarixiy uzluksizligi biologik almashuv bilangina emas, balki qadriyatlar, ma'nolar va ideallarning avlodlar avlodga uzatilishi orqali ta'minlanadi. Shu sababli, avlodlar muammosini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilishda qadriyatlar vorisiyligi mexanizmlarini ochib berish alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Qadriyatlar vorisiyligi – bu tayyor me'yorlarning mexanik ko'chirilishi emas, balki tarixiy tajribaning yangi avlod ongida qayta ma'nolanishi, tanlab olinishi va transformasiyalanishi jarayonidir. Aynan shu jarayon jamiyatning ma'naviy qayta ishlab chiqarilishini ta'minlaydi.

Qadriyatlarning tarixiy uzatilishi jamiyatning eng chuqur ijtimoiy mexanizmlaridan biridir. Gegel jamiyat tarixini ob'ektiv ruhning o'zini namoyon etishi sifatida talqin qilib, har bir avlod oldingi davrda shakllangan axloqiylikni o'zlashtirish orqali tarixiy jarayonga qo'shilishini ta'kidlaydi [5]. Bu yondashuvda vorisiylik tashqi meros emas, balki ongda ichkilashgan ijtimoiy mazmundir.

Qadriyatlarning tarixiy uzatilish mexanizmi uch darajada amalga oshadi:
madaniy-ramziy daraja (til, urf-odat, an'ana);
institutsional daraja (oila, ta'lim, ijtimoiy tashkilotlar);
sub'yektiv daraja (ma'nolanish, identifikatsiya, ichkilashuv).

Ushbu darajalar uyg'unlashgandagina vorisiylik barqaror ijtimoiy mexanizmga aylanadi.

Qadriyatlar vorisiyligining markaziy kategoriyalaridan biri – ijtimoiy xotira tushunchasidir. M.Xalbvaks ijtimoiy xotirani individual xotiraning yig'indisi emas, balki jamiyat tomonidan tashkil etilgan va yo'naltirilgan hodisa sifatida talqin qiladi. Ijtimoiy xotira orqali tarixiy tajriba, ramzlar va ideallar eshlar ongiga singdiriladi.

Ijtimoiy xotira vorisiylikning passiv ombori emas, balki faol aksiologik mexanizmdir. Aynan ijtimoiy xotira orqali jamiyat esh avlodga "nima muhim", "nima qadrlanadi", "nimaga intilish lozim" degan savollarga javob beradi.

Qadriyatlar vorisiyligi aniq ijtimoiy institutlar orqali amalga oshadi. Oila qadriyatlarining birlamchi uzatilish maydoni bo'lib, u erda axloqiy me'orlar, haëtiy orientatsiyalar va emotsional munosabatlar shakllanadi. Ta'lim esa vorisiylikni ongli va tizimli jaraëga aylantiradi. Ta'limning asosiy vazifasi insonni axloqiy mavjudot sifatida shakllantirish ekanini ko'rsatib, unda qadriyatlar ustuvorligini asoslagan. Shu bois ta'lim ijtimoiy xotirani normativ mazmun bilan boyituvchi asosiy mexanizm hisoblanadi.

Mualliflik xulosasiga ko'ra, oila – emosional vorisiylikni, ta'lim – rasional vorisiylikni, an'ana va marosimlar esa ramziy vorisiylikni ta'minlaydi. Bu uch mexanizm uyg'unlashmaguncha qadriyatlar uzviyligi to'liq shakllanmaydi.

Avlodlararo muloqot jarayonida yoshlar nafaqat tayyor qadriyatlarni o'zlashtiradi, balki ularni baholaydi, solishtiradi va qayta talqin qiladi. Shu bois, muloqot vorisiylikning dialogik mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Mening ilmiy pozisiyamga ko'ra, avlodlararo muloqot zaiflashgan jamiyatlarda qadriyatlar uzviyligi uziladi. Bu holatda yoshlar tarixiy tajribani ichki ehtiyoj sifatida emas, balki tashqi axborot sifatida qabul qiladi. Natijada qadriyatlar ijtimoiy kuchini yo'qotadi.

Qadriyatlar vorisiyligi hech qachon to'liq va o'zgarimas uzatish bo'lmagan. Har bir avlod tarixiy merosdan tanlab oladi. Yangi avlod tarixiy qadriyatlarni zamonaviy muammolar kontekstida qayta o'qiydi. Shu jarayonda ayrim qadriyatlar markazga chiqadi, ayrimlari esa ikkinchi darajaga tushadi. Bu esa qadriyatlar tizimining yangilanishini ta'minlaydi.

Mualliflik nuqtai nazariga ko'ra, vorisiylik – bu uzatish emas, balki seleksiya va rekonstruksiya jarayonidir. Yoshlar ijtimoiylashuvi jarayonida qadriyatlar tizimi jamiyat tomonidan taklif etiladi, biroq e'shlar tomonidan qayta quriladi. Aynan shu mexanizm jamiyat taraqqiyotining aksiologik manbai hisoblanadi.

Avlodlararo uzilish muammosi jamiyat taraqqiyotining eng murakkab va ziddiyatli jarayonlaridan biri hisoblanadi. Jamiyat faqat vorisiylik asosida emas, balki uzilishlar, inqirozlar va keskin o'zgarishlar orqali ham rivojlanadi. Shu sababli, avlodlararo munosabatlarda uzviylik bilan bir qatorda diskontinuitet, ya'ni qadriyatlar tizimidagi uzilishlar ham mavjud bo'lib, aynan shu holat yoshlar ijtimoiylashuvining muammo markazini tashkil etadi. Aksiologik diskontinuitet yoshlar ongida tarixiy tajriba bilan hozirgi ijtimoiy reallik o'rtasidagi nomutanosiblik sifatida namoyon bo'ladi.

Tarixiy burilishlar – urushlar, inqiloblar, modernizatsiya, texnologik sakrashlar va globallashuv jarayonlari – avlodlar ongida chuqur aksiologik siljishlarni yuzaga keltiradi. K.Mannheim ta'kidlaganidek, tarixiy muhit tubdan o'zgargan davrlarda shakllangan avlodlar o'zidan oldingi avlod tajribasini to'liq ichkilashtira olmaydi, natijada tarixiy ongda uzilish yuzaga keladi.

Mualliflik nuqtai nazariga ko'ra, zamonaviy yoshlar ongida kuzatilayotgan uzilishlarning asosiy manbai texnologik va madaniy muhitning keskin tezlashuvidir. Tarixiy tajriba sekin shakllangan davrlarda vorisiylik barqaror bo'lgan bo'lsa, bugungi sharoitda avlodlar orasidagi tajriba tafovuti keskinlashib, aksiologik uzilishlarni chuqurlashtirmoqda.

Aksiologik diskontinuitetning muhim ko'rinishlaridan biri “qadriyatlar bo'shlig'i” fenomenidir. E.Fromm zamonaviy jamiyatda an'anaviy tayanchlarning emirilishi natijasida shaxs ongida ma'naviy bo'shliq paydo bo'lishini ta'kidlab, bu holatni identifikasiya inqirozining manbai sifatida ko'rsatadi.

V.Frankl esa “ma'no vakuumi” tushunchasini kiritib, qadriyatlarning uzilishi inson ha'etini yo'naltiruvchi asosiy ma'nolarni yo'qotishga olib kelishini asoslagan [6]. Ushbu endashuvlar e'shlar ongida kuzatila'etgan aksiologik bo'shliqni falsafiy darajada talqin qilish imkonini beradi.

Zamonaviy jamiyat sharoitida yoshlar avlodi ijtimoiy taraqqiyotning oddiy vorisi emas, balki yangi tarixiy tajribani o'zida mujassamlashtiruvchi va yangi qadriyatlar tizimini

shakllantiruvchi faol sub'ekt sifatida namoyon bo'lmoqda. Yoshlar ijtimoiylashuvi jarayonida qadriyatlar shunchaki uzatilmaydi, balki tanlanadi, qayta talqin qilinadi va yangi ijtimoiy mazmun bilan boyitiladi. Shu bois,  shlar avlodi jamiyat ma'naviy rivojining reproduktiv  mas, balki kreativ bosqichini ifodalaydi.

Mening ilmiy pozitsiyamga ko'ra, yoshlar avlodini faqat "qabul qiluvchi" yoki "moslashuvchi" qatlam sifatida talqin qilish metodologik jihatdan etarli emas. Zamonaviy tarixiy sharoitda yoshlar mavjud qadriyatlarni to'liq va o'zgarmagan holda qabul qilmaydi. Aksincha, ular ijtimoiy tajribani qayta tuzuvchi, qadriyatlarni yangicha semantik maydonga joylashtiruvchi sub'ektga aylanmoqda.

Yoshlar ongida qadriyatlar endi tayyor norma emas, balki muhokama qilinadigan, tanlanadigan va shaxsiy hayotiy strategiyaga moslashtiriladigan konstruktsiya sifatida mavjud. Shu jihatdan, yoshlar ijtimoiylashuvi jamiyatning aksiologik qayta qurilishi jarayonidir.

Mualliflik yondashuvimda "avlodning tarixiy missiyasi" tushunchasi markaziy o'rin egallaydi. Har bir avlod muayyan tarixiy sharoitda shakllanib, jamiyat oldida ob'ektiv ravishda yuzaga kelgan muammolarga javob topish vazifasini bajaradi. Yoshlar avlodining tarixiy missiyasi jamiyatda yuzaga kelgan yangi ijtimoiy reallikni ma'naviy jihatdan o'zlashtirish va unga mos qadriyatlar tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Bugungi yoshlar avlodi texnologik tezlashuv, madaniy ochiqlik va global aloqadorlik sharoitida shakllanmoqda. Shu sababli ularning tarixiy missiyasi avvalgi avlodlar yaratgan qadriyatlarni inkor etish emas, balki ularni yangi tarixiy vaziyatga mos tarzda qayta tuzish, integratsiyalash va funksional holatga keltirishdan iborat.

Mening ilmiy qarashimga ko'ra, yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar mexanik ravishda emas, balki selektiv tarzda o'zlashtiriladi. Yoshlar tarixiy merosdan barcha unsurlarni bir xil darajada qabul qilmaydi. Ular ijtimoiy tajribani o'z hayotiy ehtiyojlari, dunyoqarashi va mavjud muhit talablari asosida tanlab oladi.

Selektivlik jarayonida ayrim qadriyatlar markaziy o'rin egallaydi, ayrimlari esa ikkilamchi yoki ramziy darajaga tushadi. Bu jarayon yoshlar qadriyatlar tizimining yangilanish mexanizmini tashkil etadi. Natijada, vorisilik uzilmaydi, biroq uning mazmuni tubdan o'zgaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K. Mannheim, *Essays on the Sociology of Knowledge*, London, 1952, p. 286-292
2. J. Ortega y Gasset, *The Modern Theme*, New York, 1961, p. 63-70
3. A. Toynbee, *A Study of History*, Vol. I, Oxford, 1934, p. 71-74
4. R. Inglehart, *The Silent Revolution*, Princeton, 1997, p. 65-72
5. G.W.F. Hegel, *Philosophy of Right*, Oxford, 1952, §142-153
6. V. Frankl, *Man's Search for Meaning*, Boston, 2006, p. 106-109

